

INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA YOSH OMILINING PSIXOLOGIK TA‘SIRI

Ochilova Xurshida Bahromovna

*O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti 1-bosqich talabasi***Annotatsiya.**

Mazkur maqolada ingliz tilini o‘rganishda yosh omilining psixologik ta‘siri keng qamrovda tahlil qilinadi. Turli yosh bosqichlarida til o‘zlashtirish jarayonining kognitiv, emotsional va motivatsion xususiyatlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, yoshga bog‘liq psixologik to‘siqlar, affektiv omillar va o‘qitish metodlarining samaradorligi ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yosh omili muhim bo‘lsa-da, motivatsiya va psixologik muhit undan kam ahamiyatga ega emas.

Kalit so‘zlar: *yosh omili, psixologiya, ingliz tili, kognitiv rivojlanish, motivatsiya, til xavotiri, affektiv filtr.*

Abstract.

This article provides a comprehensive analysis of the psychological impact of age on learning English. The cognitive, emotional, and motivational characteristics of language acquisition at different stages of life are examined based on scientific sources. In addition, age-related psychological barriers, affective factors, and the effectiveness of teaching methods are also considered. The findings indicate that although age is an important factor, motivation and the psychological environment are no less significant.

Keywords: *age factor, psychology, English language, cognitive development, motivation, language anxiety, affective filter.*

Аннотация.

В данной статье всесторонне анализируется психологическое влияние возрастного фактора на изучение английского языка. Когнитивные, эмоциональные и мотивационные особенности усвоения языка на разных возрастных этапах рассматриваются на основе научных источников. Также анализируются возрастные психологические барьеры, аффективные факторы и эффективность методов обучения. Результаты исследования показывают, что, хотя возраст является важным фактором, мотивация и психологическая среда имеют не меньшее значение.

Ключевые слова: *возрастной фактор, психология, английский язык, когнитивное развитие, мотивация, языковая тревожность, аффективный фильтр.*

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilini o‘rganish muhim hayotiy ehtiyojga aylangan. Ta‘lim, ilm-fan va texnologiya sohalarida ingliz tilini bilish yuqori natijalarga erishishning

asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli turli yoshdagi insonlar ushbu tilni o‘zlashtirishga intilmoqda. Biroq psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganish jarayoni barcha yosh davrlarida bir xil kechmaydi. Insonning kognitiv rivojlanishi yoshga qarab o‘zgaradi va bu o‘rganish samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. [1]. [45:200] Shuningdek, bilim olish jarayoni ijtimoiy muhit bilan bog‘liq bo‘lib, muloqot orqali rivojlanadi. Muloqot orqali o‘rganish shuni anglatadiki, inson: boshqalarning fikrini eshitib, savol beradi tushunmagan joylarini aniqlashtiradi va o‘z bilimini mustahkamlaydi. Masalan, ingliz tilini o‘rganishda faqat kitob o‘qish yetarli emas. Agar o‘quvchi suhbatlashsa, savol-javob qilsa, fikr almasha, u tilni tezroq va samaraliroq o‘zlashtiradi. Chunki muloqot jarayonida til amaliy ko‘nikmaga aylanadi. [2]. [86:317].

Til o‘rganish insonning psixologik jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda xotira, diqqat, tafakkur va motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, bolalik davrida miya yuqori darajada plastiklikka ega bo‘lib, yangi axborotni tez qabul qiladi. Bu esa tilni tabiiy ravishda o‘zlashtirish imkonini beradi. [3]. [176:489]. Kritik davr nazariyasiga ko‘ra, til o‘rganish uchun eng qulay davr aynan bolalik hisoblanadi va ushbu davrdan keyin tilni mukammal o‘zlashtirish qiyinlashadi. Biroq katta yoshdagi insonlarda analitik fikrlash kuchli bo‘ladi. Shu sababli kattalar tilni ongli ravishda, ya’ni grammatik qoidalarni tushunib va tahlil qilib o‘rganadi. [4]. [21:327].

Bolalik davrida ingliz tilini o‘rganish eng samarali bosqichlardan biri hisoblanadi. Bolalar yuqori darajadagi taqlid qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, tovushlar va talaffuzni tez o‘zlashtiradi. Natijada ular ona tiliga yaqin talaffuzga ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bolalar o‘rganish jarayonini o‘yin sifatida qabul qiladi, bu esa ularning psixologik erkinligini oshiradi. Ular xatolardan qo‘rqmaydi va faol ravishda muloqot qiladi. Biroq kichik yoshdagi bolalarda diqqatning barqarorligi past bo‘lib, ular tez chalg‘iydi. [5]. [112:350]. Shu sababli bolalarni o‘qitishda o‘yinlar, vizual materiallar va interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O‘smirlik davrida ingliz tilini o‘rganish jarayoni yanada murakkablashadi. Bu davrda o‘quvchilarda abstrakt fikrlash rivojlanadi va ular grammatik qoidalarni yaxshiroq tushuna boshlaydi. Shu bilan birga, psixologik omillar ham kuchayadi. Xususan, o‘smirlar ko‘pincha xato qilishdan qo‘rqadi va bu ularning nutq faoliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Krashenning affektiv filtr nazariyasiga ko‘ra, qo‘rquv va stress o‘rganish samaradorligini pasaytiradi. Bundan tashqari, o‘smirlik davrida o‘z-o‘zini baholash va ijtimoiy taqqoslash kuchayadi, bu esa ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. [6]. [145:280]. Natijada o‘quvchi bilimga ega bo‘lsa ham, uni amalda qo‘llashdan tortinishi mumkin.

Katta yoshdagi insonlar ingliz tilini o‘rganishda ongli yondashuvga ega bo‘ladi. Ular o‘z tajribasiga tayanadi va aniq maqsadlar asosida o‘rganadi. [7]. [43:210]. Bu esa ularga

grammatikani tez tushunish va mustaqil o‘rganish imkonini beradi. Shu bilan birga, katta yoshdagilarda ayrim psixologik to‘siqlar ham mavjud. Xususan, o‘ziga ishonchsizlik va xato qilishdan qo‘rquv o‘rganish jarayoniga salbiy ta‘sir qiladi [8]. [98:270]. Bundan tashqari, vaqt yetishmasligi ham muhim omillardan biridir. Shuning uchun kattalar uchun o‘rganish jarayonida motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash va qulay muhit yaratish muhimdir.

Til o‘rganishda motivatsiya alohida ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, motivatsiya o‘rganish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Gardner motivatsiyani integrativ va instrumental turlarga ajratadi. [9]. [50:265]. Integrativ motivatsiya insonning tilni o‘rganishga bo‘lgan ichki qiziqishi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda o‘quvchi tilni o‘sha tilda so‘zlashuvchi insonlar bilan muloqot qilish, ularning madaniyatini tushunish va til muhitiga yaqinlashish istagi bilan o‘rganadi. Bu turdagi motivatsiya odatda kuchli va uzoq muddatli bo‘lib, o‘rganish jarayonining samaradorligini oshiradi. Instrumental motivatsiya esa amaliy maqsadlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda o‘quvchi ingliz tilini ma‘lum natijaga erishish uchun, masalan, imtihondan o‘tish, yaxshi ish topish yoki xorijda ta‘lim olish maqsadida o‘rganadi. Ushbu motivatsiya ham muhim bo‘lsa-da, u ko‘pincha qisqa muddatli bo‘lib, maqsadga erishilgach pasayishi mumkin. Ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan o‘quvchilar tilni tezroq va samaraliroq o‘zlashtiradi. Shuningdek, emotsional holat ham muhim rol o‘ynaydi. Ijobiy muhit o‘rganishni tezlashtirsa, salbiy emotsiyalar aksincha jarayonni sekinlashtiradi.

Turli yosh bosqichlarida o‘qitish metodlari ham farqlanishi kerak. Bolalar uchun o‘yin va vizual metodlar samarali bo‘lsa, o‘smirlar uchun interaktiv mashg‘ulotlar va muloqot muhim ahamiyatga ega. Katta yoshdagilar esa mustaqil o‘rganish va amaliy mashqlarga ko‘proq e‘tibor qaratadi. O‘rganish jarayonining samaradorligi ijtimoiy muhitga ham bog‘liq bo‘lib, muloqot orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘rganishda yosh omili muhim psixologik faktor hisoblanadi. Har bir yosh davri o‘ziga xos kognitiv va emotsional xususiyatlarga ega bo‘lib, ular til o‘rganish jarayoniga bevosita ta‘sir qiladi. Shu bilan birga, motivatsiya va psixologik muhit ham katta ahamiyatga ega. To‘g‘ri yondashuv va mos metodlar orqali har qanday yoshda ingliz tilini samarali o‘rganish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society.
3. Lenneberg, E. H. (1967). Biological Foundations of Language.

4. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition.
5. Nishonova, Z. T. Umumiy psixologiya. Toshkent.
6. G‘oziev, E. G‘. Psixologiya asoslari. Toshkent.
7. Knowles, M. (1980). The Modern Practice of Adult Education.
8. Hasanboyeva, O. Pedagogika nazariyasi. Toshkent.
9. Gardner, R. C. (1985). Social Psychology and Second Language Learning.